

GULXANIY VA KRILOVNING MASALLARIDA O‘XSHASHLIK.

Sadulloyeva Mahfuza Gaybulloyevna

Buxoro davlat universiteti Boshlang‘ich metodika kafedrasi o‘qituvchi

Tolibova MARJONA

Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ishi yo‘nalishi

14-11BTU-19 guruh talabasi

Annotatsiya Ushbu maqolada Gulxaniy va Krilovning masallarida

o‘xshashlik topishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: Masal, Gulxaniy, Krilov, Zarbulmasal, xalqchilik.

Adabiyotimiz bo‘stonida har bir janr o‘ziga xos yuksak badiiylikka , o‘tkir satira bilan ajralib turadi. Shunday yuksak badiiylikka ega janrlardan biri bu masaldir. Masal janrining obrazlar talqinining o‘ziga xosligi , o‘tkir syujeti hamda adabiy bo‘yoqdorligini o‘z asarlarida yuksak darajada ifoda etgan Sharq va G‘arb adabiyotining ikki yirik vakili Gulxaniy va Krilov asarlarida o‘z aksini topgan.

Bu ikki ijodkor masal janrida ijod etibgina qolmay, ushbu janrning yuksalishi yanada taraqqiy etishida o‘ziga xos o‘ringa egadirlar.

63

Har ikki ijodkor bu janrda ijod etibgina qolmay, o‘z asarlarida ijod namunalarida o‘zlari yashab ijod qilgan davr hayoti, insonlar taqdiri , xalq kechinmalarini majoziy hayvonlar obrazida hazil mutoyibaa shu bilan birga pand-nasihat ruhida yaratganlar.

Gulxaniy va Krilovning ijodiga yuzlanar ekanmiz , har ikki ijod namunalarida rang – baranglik , allegoric obrazlar , majoziy usul asosida yoritish, o‘tkir syujet kitobxon qalbida o‘zgacha bir his uyg‘otadi.

Krilov masallari jahon masalchilik janrining eng yuksak cho‘qisi sanaladi. Bu avvalo undagi xalqchilik bilan , rus xalqining orzu umidi , yashash tarsi, tarixi bilan bog‘liqlikda ko‘zga tashlanadi.

Krilovning hayoti va ijodiga yuzlangan chog‘ingizda nima uchun aynan masal janrida ijod qilish sababini bayon etgan jumla uning masallarining naqadar xalqchiligini yanada ochib beradi.

—Bu janr hamma uchun tushunarli : uni dehqonlar ham bolalar ham o‘qiydi“ deb ta‘kidlab o‘tgan. Xuddi ana shu ommaboplik xususiyati muallifning rang – barang g‘oyalarini ham kulguli , ham satiric holatlarni o‘ziga xos talqinda ifodalashga undagan.

Krilov fikricha masal janrida „ haqiqat yarim tarzda“ ifoda etiladi. U o‘z masallarida pand - nasihatdan qochadi. Krilov masallardagi eng asosiy xususiyat xalqchilik bo‘lib , bu ularning zamonaviyligini ham ta‘minlaydi o‘z ahamiyatini yo‘qotganicha yo‘q.

Krilov masallari o'quvchini rang – barang qismatlar, Qaytarilmas holatlar olamiga olib kiradi. Krilov masallarida bevosita tarixiy voqea hodisalarga ba'zi bir tarixiy shaxslarning kirdikorlariga munosabatini yaqqol ko'rish mumkin.

Nafaqat Krilov balki Sharq masalchiligida o'z o'rniga ega Gulxaniy ijodida ham u yashab ijod etgan davrdagi hayot o'z ifodasini topgan.

64

Gulxaniy masallarida tasvirlangan obrazlarning ko'pchiligi - ular xoh hayvonlar , xoh Qushlar obrazi, xoh kishilar obrazi bo'lsin- yaramas illatlar sifatida shakllangan.

U o'zi yashab ijod etgan davrdagi illatlarni , xato va kamchiliklarni asarlarida hayvon obrazida talqin etib qoralagan.

Gulxaniy masallarida o'z davrining eng ahamiyatli masalalar badiiy ifodalab bergan. Asarlarida feodal tizimning chirib borishi , bu tizim xulq – atvorining tanazzuli , mamlakatning vayronaligi masalda turli obrazlarda o'z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Национально - культурные ценности востока в баснях мухаммада шарифа гульхани fom Fayzullayev Mukhammad Baqoyevich , Sadullayeva Maxfuza Gaybullayevna theoretical & applied science.
2. Лингвокультурема как тесная связь языка и культуры, на примере басни Гулхани «Рассказы о сове». Актуальные вопросы современной науки и образования. Стр 218
3. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal)
—NATIONAL CULTURE IN THE FABLES OF GULHANIY||
Gaybulloevna Makhfuza Sadulloeva*
- 4 I.A.Krilov. „Masallar“ Tosh. 1980 y
5. Gulxaniy „Zarbulmasal“ Tosh. 1972 y